| Transportda turistik xizmatlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish.....                                                                                                                                                   | 581 |
| Tuychiyev Anvarjon Muxtorjonovich                                                                                                                                                                                                |     |
| Ipak yo'lining tarixiy madaniy merosi va hunarmandchiligi: dolzarb muammolar va tadqiqot istiqbollari .....                                                                                                                      | 584 |
| Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna                                                                                                                                                                                               |     |
| Eksport faoliyatini rag'batlantirishda institutsional va moliyaviy mexanizmlarning roli.....                                                                                                                                     | 589 |
| Umarkulov Kodirjon Maxamadinovich                                                                                                                                                                                                |     |



|                                                                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Elektron pul evolyutsiyasi.....                                                                                                                        | 595 |
| <b>Marpatov Mavlonxon Dadashevich</b>                                                                                                                  |     |
| Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida sanoat korxonalarining roli.....                                                                                | 600 |
| <b>Nasullayeva Yoqutoy Nasim qizi</b>                                                                                                                  |     |
| O'zbekistonda turizm marketingi va raqobatbardoshligini oshirish .....                                                                                 | 606 |
| <b>Ikramova Nasiba Axmadovna</b>                                                                                                                       |     |
| Kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy yo'nalishlari.....                                                                                           | 610 |
| <b>Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li</b>                                                                              |     |
| Jamiyatda imkoniyati cheklanganlarning bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.....                                                      | 615 |
| <b>Tilavova Munisa Maxmudovna</b>                                                                                                                      |     |
| Moliyaviy matematika vositalarining O'zbekiston kredit tizimidagi qo'llanilishi.....                                                                   | 620 |
| <b>Shamsiyeva Nigora Rafiq qizi</b>                                                                                                                    |     |
| Ecological sustainability in tourism: regional practices and global reflections.....                                                                   | 626 |
| <b>Sayyora Safaeva</b>                                                                                                                                 |     |
| Quyi amudaryo mintaqasida turli darajadagi destinasiyalararo ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish asoslari va ularning o'ziga xos jihatlari..... | 631 |
| <b>Doschanov Tangirbergen, Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich</b>                                                                                   |     |
| Fine dining restoranlarida marketing strategiyalarining shakllanishi va mijoz jalb qilishda ularning ahamiyati.....                                    | 641 |
| <b>Jumaniyazova Sarvinov Mansur qizi</b>                                                                                                               |     |
| Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini kontseptual asoslari va shartlari asoslari xususida.....                                           | 644 |
| <b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich</b>                                                                                                              |     |
| Davlat sektoridagi tashkilotlarda smetalar tuzish tartibi .....                                                                                        | 651 |
| <b>Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich</b>                                                                                                          |     |
| Качественное развитие рынка труда узбекистана.....                                                                                                     | 657 |
| <b>Мамадалиева Хафиза Холдаровна</b>                                                                                                                   |     |
| Kichik biznes subyektlarining aholi bandligini ta'minlash orqali kambag'allik darajasini pasaytirishdagi o'rni.....                                    | 664 |
| <b>Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| Устойчивое развитие esg-менеджмента: от тренда к фундаментальной стратегии выживания и процветания.....                                                | 670 |
| <b>Собирова Нилуфар Бекпулат кизи</b>                                                                                                                  |     |
| Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi .....                                                        | 676 |
| <b>Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi</b>                                                                                                               |     |
| Qurilish loyihalarini moliyalashtirishning milliy va xalqaro tajribasi .....                                                                           | 681 |
| <b>Yashin Iboyev</b>                                                                                                                                   |     |
| Xizmatlar sohasida innovatsion muhitni yaratishning dolzarb masalalari.....                                                                            | 687 |
| <b>Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov, Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev</b>                                                                                |     |
| Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarishda tovar aylanmasi tahlili.....                                                                  | 692 |
| <b>Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna</b>                                                                                                                    |     |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlarda innovatsion faoliyatning moliyaviy va boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalari .....                           | 698 |
| <b>Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi</b>                                                                                                                 |     |
| Effect of processing on nutrients in tomato products.....                                                                                              | 706 |
| <b>Ergasheva Muhabbat Komil kizi</b>                                                                                                                   |     |
| Asosiy vositalarni davomiy (uzluksiz) baholash.....                                                                                                    | 710 |
| <b>Kuziev Islom Nematovich, Raxmonov Xurshidbek Shavkat o'g'li</b>                                                                                     |     |
| Sun'iy intellekt: Markaziy banklarni qanday o'zgartirmoqda? .....                                                                                      | 715 |
| <b>Shahboz Qozoqov Ortiqbaevich</b>                                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kichik biznes subyektlarida tashkil etilgan baliqchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni..... | 720 |
| <b>Vazirov Azamat Yoqubjonovich</b>                                                                                                                  |     |
| Korxonalarining marketing faoliyatini strategik rivojlantirish yo'nalishlari.....                                                                    | 725 |
| <b>Isokboeva Zilola Rustam qizi</b>                                                                                                                  |     |
| К целям повестки 2030: анализ экономических индикаторов узбекистана .....                                                                            | 728 |
| <b>Салахутдинова Юлдуз Голибовна</b>                                                                                                                 |     |
| Современное состояние исследований в области использования цифровых технологий в инвестиционной деятельности .....                                   | 734 |
| <b>Ирмухамедова М.Д.</b>                                                                                                                             |     |
| Tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi jarayoni, uning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini tahlil qilish.....                                  | 741 |
| <b>Eshqobilov Ahmat Jovliyevich</b>                                                                                                                  |     |
| Aholi sonining o'sishi va iqtisodiy infratuzilmaga yuklanish: hududiy tahlil .....                                                                   | 745 |
| <b>To'rayev Nurbek Baykulovich</b>                                                                                                                   |     |
| O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va boshqarishning hududiy rivojlantirish strategiyasi .....                                        | 751 |
| <b>Nuraliev Temurjon Erkinjon o'g'li</b>                                                                                                             |     |
| O'zbekistonning zamonaviy korxona va tashkilotlarda boshqaruv masalalari .....                                                                       | 756 |
| <b>Ahtamova Mohigul Erkinovna</b>                                                                                                                    |     |
| Davlat tashkilotlarida ichki audit tuzilmalarini tashkil etishni rivojlantirish .....                                                                | 761 |
| <b>Nasimov Fazliddin Sirojevich</b>                                                                                                                  |     |
| Yashil moliyalashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining roli: imkoniyatlar va xavflar tahlili .....                                           | 765 |
| <b>Isoqulova Munisxon Abdurasul qizi</b>                                                                                                             |     |
| Критерии экологичности бренда: как измерить «зеленый» имидж? .....                                                                                   | 769 |
| <b>Носирова Чарос</b>                                                                                                                                |     |
| Qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish .....                                                                              | 775 |
| <b>Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>                                                                                |     |
| «O'ztransgaz» AJ faoliyatini 2024–2027 yillarga prognozlashtirishda ekonometrik modellar asosida tahlil .....                                        | 784 |
| <b>Sindorov Davlatbek Abdumajid o'g'li, Murodov Sardor Nurali o'g'li</b>                                                                             |     |
| Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar.....                                                                   | 791 |
| <b>Mahmudov Otamurod Hoshimovich, Murtazova Sh.N.</b>                                                                                                |     |
| Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....                                                   | 795 |
| <b>Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li</b>                                                                                                            |     |
| O'zbekiston chakana savdosi tizimi va uning rivojlanishi.....                                                                                        | 806 |
| <b>Yaqubov Azizbek G'anibekovich</b>                                                                                                                 |     |
| Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning o'rni va maqsadi .....                                                                             | 812 |
| <b>Amonov Mehriddin Oromiddinovich</b>                                                                                                               |     |
| Investitsion faoliyatni amalga oshirishning xorij tajribasi va mamlakatimizda foydalanish istiqbollari.....                                          | 816 |
| <b>O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi</b>                                                                                                           |     |
| Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni.....                                                | 822 |
| <b>Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>                                                                                  |     |
| Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений .....                                                    | 829 |
| <b>Бегалиев Файзали Умаралиевич</b>                                                                                                                  |     |
| Sog'lomlashtirish turizmida ekologik va ijtimoiy ta'sirlarning sintezi.....                                                                          | 832 |
| <b>Naimov Saidjon Yusup o'g'li</b>                                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                                       |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari.....                                           | 835 |
| <b>Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna</b>                                                                                                                |     |
| Обзор по теме Современные системы управления возбуждение синхронных машин и перспективы их развития (Формирования законов управления).....            | 841 |
| <b>Алиев Абдор Мураткулович</b>                                                                                                                       |     |
| O'zbekistonda turizm va servis sohasida davlat- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari.....                                          | 846 |
| <b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b>                                                                                                             |     |
| Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish .....                                                         | 850 |
| <b>Jaxongir Rabbimov</b>                                                                                                                              |     |
| Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari.....                                     | 855 |
| <b>Turobov Sherzod Alisherovich</b>                                                                                                                   |     |
| Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход.....                                                             | 860 |
| <b>Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули</b>                                                                                                                 |     |
| Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari.....                                                                 | 864 |
| <b>Yusubboeva Dinora Quadrat qizi</b>                                                                                                                 |     |
| Iqlim o'zgarishlari va rekreatsiya turizmining kelajagi: muammolar va yechimlar .....                                                                 | 870 |
| <b>Shaymanova Nigora Yusupovna</b>                                                                                                                    |     |
| Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....                                                                       | 875 |
| <b>Tursunova Gulmira Rabbonovna</b>                                                                                                                   |     |
| Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....                            | 883 |
| <b>Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbos Aslamjon o'g'li</b>                                                                              |     |
| Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari .....                                                           | 889 |
| <b>Bekmurodova Gavhar Adham qizi</b>                                                                                                                  |     |
| Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar .....                  | 895 |
| <b>Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi</b>                                                                             |     |
| Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....                                                       | 902 |
| <b>Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                               |     |
| Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана .....                                                                               | 906 |
| <b>Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева</b>                                                                                                  |     |
| Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....                                                              | 911 |
| <b>Ermatov Akmaljon Adxamovich</b>                                                                                                                    |     |
| "Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili .....                                                                                      | 916 |
| <b>Narziqulov Elbek Farxod o'g'li</b>                                                                                                                 |     |
| Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish .....                                                                                | 922 |
| <b>Meliqulov Abduhalil Norinovich</b>                                                                                                                 |     |
| Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....                                                                       | 929 |
| <b>Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich</b>                                                                                 |     |
| Сущность и причины международных денежных переводов .....                                                                                             | 936 |
| <b>Гимранова О. Б.</b>                                                                                                                                |     |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari..... | 941 |
| <b>Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich</b>                                                                                                            |     |
| Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....                                                                                 | 948 |
| <b>Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich</b>                                                                                                               |     |
| Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....                                                       | 953 |
| <b>Xodjayev Jamshid Abduxakimovich</b>                                                                                                                |     |





# XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB QILISHDA IQTISODIY SIYOSATNING ROLI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

**Xodjayeov Jamshid Abduxakimovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
e-mail: [khodjaev.j@gov.uz](mailto:khodjaev.j@gov.uz)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida iqtisodiy siyosatning tutgan o'ri va ahamiyati zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Bugungi globallashuv sharoitida investitsion raqobatning keskinlashuvi, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun barqaror iqtisodiy o'sish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda xorijiy investitsiyalar muhim manba bo'lib qolmoqda. Shundan kelib chiqib, maqolada iqtisodiy siyosat vositalarining - soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari, institutsional islohotlar, davlat-xususiy sheriklik tizimi va investorlar uchun huquqiy muhitni mustahkamlash kabi omillarning investitsiya muhitiga ta'siri tizimli tarzda o'rganiladi. Muallif xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishda iqtisodiy siyosatning ko'p qirrali ta'sir mexanizmlarini tahlil qiladi va kelajakda investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni beradi.

**Kalit so'zlar:** Xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy siyosat, investitsion muhit, zamonaviy yondashuvlar, institutsional islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlik, huquqiy muhit, investitsion jozibadorlik.

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of economic policy in the process of attracting foreign investment based on modern approaches. In today's globalization environment, with the intensification of investment competition, foreign investment remains an important source of ensuring sustainable economic growth and innovative development for developing countries. Based on this, the article systematically studies the impact of economic policy instruments on the investment climate, such as tax incentives, customs relief, institutional reforms, the public-private partnership system, and strengthening the legal environment for investors. The author analyzes the multifaceted mechanisms of influence of economic policy in the active attraction of foreign investment and provides proposals and recommendations to increase investment attractiveness in the future.

**Key words:** Foreign investment, economic policy, investment climate, modern approaches, institutional reforms, macroeconomic stability, legal environment, investment attractiveness.

**Аннотация:** В статье анализируется роль и значение экономической политики в процессе привлечения иностранных инвестиций на основе современных подходов. В современных условиях глобализации, при обострении инвестиционной конкуренции, иностранные инвестиции остаются важным источником обеспечения устойчивого экономического роста и инновационного развития развивающихся стран. На основе этого в статье системно изучается влияние инструментов экономической политики на инвестиционный климат, таких как налоговые льготы, таможенные льготы, институциональные реформы, система государственно-частного партнерства, укрепление правовой среды для инвесторов. Автор анализирует многогранные механизмы влияния экономической политики на активное привлечение иностранных инвестиций и дает предложения и рекомендации по повышению инвестиционной привлекательности в будущем.

**Ключевые слова:** Иностранные инвестиции, экономическая политика, инвестиционный климат, современные подходы, институциональные реформы, макроэкономическая стабильность, правовая среда, инвестиционная привлекательность.


## KIRISH

Global iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi hamda raqobatbardoshlik omillarining tobora murakkablashib borayotgani xorijiy investitsiyalar harakatiga bo'lgan talab va qiziqishni keskin oshirmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan mamlakatimiz uchun xorijiy investitsiyalar nafaqat kapital oqimi sifatida, balki texnologik modernizatsiya, zamonaviy boshqaruv amaliyotlarini joriy etish, bandlikni ta'minlash va iqtisodiyotda strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirish vositasi sifatida ham muhim o'rin tutadi



[1]. Shu boisdan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi har bir davlatning iqtisodiy siyosatida strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Xorijiy investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb qilishda davlat tomonidan yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning izchil va maqsadli bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Bunday siyosat fiskal va monetar choralarni, institutsional islohotlarni, soliq va bojxona tizimidagi yengilliklarni, shuningdek, investorlarga nisbatan kafolatli huquqiy muhit yaratishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, nafaqat iqtisodiy omillar, balki siyosiy barqarorlik, sud-huquq tizimining mustaqilligi, korrupsiyaga qarshi kurash, shuningdek, xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilayotgan baholar ham investitsion qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi omillarga aylanmoqda [2].



1-sxema. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda iqtisodiy siyosat vositalarining funksional tarmoqli modeli

Mazkur tarmoqli sxema mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi asosiy vositalarini tizimli ko'rinishda ifodalaydi. Sxema markazida iqtisodiy siyosat turib, u orqali bir nechta asosiy zamonaviy yondashuvlar - soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) va erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) - investitsiya muhiti shakllanishiga xizmat qiladi.

Bu vositalarning sinergiyasi natijasida investitsion ishonch ortib, xorijiy kapital oqimi kuchayadi. Sxema iqtisodiy siyosatni faqatgina nazariy konsepsiya emas, balki real amaliy mexanizmlar majmuasi sifatida yoritadi. U zamonaviy yondashuvlarga asoslangan iqtisodiy siyosat orqali sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish modelini vizual tarzda tushuntirib beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi, Investitsiyalarni jalb qilish va eksportni rag'batlantirish bo'yicha davlat siyosatini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida xorijiy investorlar uchun qulay biznes muhiti yaratish borasidagi intilishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Jumladan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, investorlar huquqlarini kafolatlovchi qonunchilikni takomillashtirish, iqtisodiy erkin zonalarini rivojlantirish kabi yo'nalishlar bugungi kunda muhim rol o'ynamoqda [3]. Shu bilan birga, makroiqtisodiy barqarorlik, inflatsiya va valyuta kursining bashorat qilinuvchanligi kabi ko'rsatkichlar ham iqtisodiy siyosatning investitsiyalarni jalb qilishdagi samaradorligini belgilaydi. Shu sababli, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning o'rni va uning zamonaviy yondashuvlar asosidagi shakllanishini ilmiy tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida iqtisodiy siyosatning roli masalasi ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili mavzuni chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu sohada tan olingan bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning qarashlari tahlil qilinadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Xodjayev S.S. o'zining "Investitsion faoliyatni rivojlantirishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari" nomli ilmiy ishida O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim vositasi sifatida soliq siyosatini ko'rsatadi [4]. Unga ko'ra, investitsion muhitni yaxshilash uchun davlat tomonidan soddalashtirilgan soliq tizimi, kafolatli huquqiy himoya va erkin iqtisodiy zonalarining faoliyati muhim rol o'ynaydi. Xodjayevning fikricha, davlat strategiyasi sifatida investorlar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish va ularning xavf-xatarlarini kamaytirish ustuvor ahamiyatga ega. Karimov Q.X. "O'zbekistonning investitsion siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni" nomli tadqiqotida iqtisodiy siyosatning



ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan uyg'unlashuviga e'tibor qaratadi [5]. Muallif xorijiy investitsiyalarni jalb etishda makroiqtisodiy barqarorlik, inflatsiya darajasining pastligi va xalqaro reytingdagi ijobiy baholar muhim omillar ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, O'zbekistonda olib borilayotgan institutsional islohotlar xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli muhit yaratishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tursunov B.O. o'zining ilmiy maqolalarida xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatni taklif etadi [6]. Unga ko'ra, investitsiya oqimini jalb qilish uchun davlat strategik tarmoqlarni belgilab, ular uchun alohida soliq imtiyozlari va preferensiyalarni joriy etishi lozim. Tursunov xorijiy sarmoyaning faqat moliyaviy manba sifatida emas, balki texnologik va innovatsion transformatsiyaning kuchli omili sifatida qaralishi kerakligini urg'ulaydi. Jo'rayev M.M. "Investitsion jozibadorlik va iqtisodiy siyosat: o'zaro bog'liqlik tahlili" nomli ilmiy ishida davlatning roli faqat tartibga soluvchi emas, balki yo'naltiruvchi va barqarorlik kafolatchisi sifatida namoyon bo'lishi kerakligini qayd etadi [7]. U xalqaro tajribalarni tahlil qilish orqali investitsiya siyosatini raqamlashtirish, elektron xizmatlarni kengaytirish va investorlarga xizmat ko'rsatish "yagona oyna" tizimlarini joriy etishni taklif qiladi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan John Dunning – xorijiy investitsiyalar nazariyasining asoschisi bo'lib, uning "OLI Paradigmasi" (Ownership, Location, Internalization) modeli investitsiyalarning qayerga va qanday shaklda yo'naltirilishini tushuntiradi [8]. Dunningning fikricha, iqtisodiy siyosat aynan "Location advantages" – ya'ni joylashuvning ustunliklarini shakllantirish orqali investitsiyalarni jalb etishga xizmat qilishi kerak. Bu esa, qulay soliq muhit, infratuzilmaning rivojlanganligi va siyosiy barqarorlikni o'z ichiga oladi. Jeffrey Sachs – rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning roli haqida chuqur tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, davlatning iqtisodiy siyosati ijtimoiy infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, chunki bu omillar uzoq muddatli investitsiyalar uchun ijobiy muhit yaratadi [9]. Sachs ayniqsa institutsional muhitning ochiqligi va korrupsiyaga qarshi kurashni alohida ta'kidlaydi. Dani Rodrik – global iqtisodiy siyosat masalalarini o'rganib, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda "ma'lum darajada proteksionizm va ichki sanoatni muhofaza qilish siyosati"ni qo'llab-quvvatlaydi. U davlatning iqtisodiy strategiyasi xalqaro talab va ichki imkoniyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlashi lozimligini urg'ulaydi [10]. Rodriking fikriga ko'ra, barqaror iqtisodiy siyosatni yuritish xorijiy investorlar uchun asosiy ishonch omilidir. Laura Alfaro – Harvard universiteti professori bo'lib, uning tadqiqotlari xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratishdagi roliga bag'ishlangan [11]. Alfaro xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning institutsional islohotlar bilan uyg'unlashuvi, moliyaviy bozorlarning liberallashtirish va tashqi ochiqlik siyosatining muhimligini ta'kidlaydi. U iqtisodiy siyosatni investitsiya oqimlari bilan uyg'unlashtirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish mumkinligini asoslab beradi.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha iqtisodiy siyosat har doim kompleks, ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladi. Mahalliy va xorijiy olimlar fikrlari o'zaro uyg'unlikda bo'lib, ularning tavsiyalari O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli va ta'sirini aniqlash, shuningdek, zamonaviy yondashuvlar asosida ushbu siyosatni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, murakkab iqtisodiy va institutsional omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotda nazariy asoslar, empirik tahlil va taqqoslovchi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xorijiy investitsiyalar hajmining o'sish dinamikasi. O'zbekiston Respublikasining xorijiy investitsiyalar sohasidagi o'sish dinamikasi 2020–2025-yillar davomida sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatdi. 2020-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 1,73 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 2,28 milliard AQSh dollariga, 2022-yilda 2,65 milliard AQSh dollariga yetdi. 2023-yilda esa xorijiy investitsiyalar hajmi 2,14 milliard AQSh dollariga kamaydi, bu esa 2022-yilga nisbatan 16% pasayishni anglatadi. 2024-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 11,9 milliard AQSh dollariga yetdi, bu esa 2023-yilga nisbatan 53,6% o'sishni bildiradi [12].

Investitsiyalar tarkibi va sektorlar kesimidagi taqsimoti. 2024 yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 493,7 trillion so'mni (taxminan 39,03 milliard AQSh dollarini) tashkil etdi. Ushbu investitsiyalarning 46,9% (18,29 milliard AQSh dollar) asbob-uskunalar va jihozlarga, 43,1% (16,82 milliard AQSh dollar) qurilish va o'rnatish ishlari uchun sarflandi. Qolgan 10% (3,91 milliard AQSh dollar) esa boshqa xarajatlar, jumladan tayyorlov ishlari, treninglar va maslahat xizmatlariga yo'naltirildi.

Sektorlar kesimidagi taqsimotga qaraganda, eng katta investitsiyalar quyidagi sohalarga yo'naltirilgan:

Energetika sektori: 2024-yilda energetika sohasida 24 ta loyiha amalga oshirildi, ularning umumiy qiymati 7 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'lib, Buxoro, Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida 5 ta quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi.

Metallurgiya sanoati: Metallurgiya sohasida 3 ta loyiha ishga tushirildi, ularning umumiy qiymati 881 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Kimyo sanoati: Kimyo sanoatida 15 ta loyiha amalga oshirildi, ularning umumiy qiymati 267 million AQSh dollarini tashkil etdi.



To'qimachilik sanoati: To'qimachilik sanoatida 32 ta loyiha ishga tushirildi, ularning umumiy qiymati 546 million AQSh dollarini tashkil etdi.

3. Investitsiya siyosatining samaradorligi va islohotlar. O'zbekiston hukumati xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda bir qator islohotlarni amalga oshirdi. 2020-yilda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, bu qonun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni himoya qilish va rag'batlantirishga qaratilgan.

1-jadval. "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakatimizning iqtisodiy siyosatiga oid SWOT-tahlili"

| № | Kategoriya          | Tavsif                                                                |
|---|---------------------|-----------------------------------------------------------------------|
| 1 | Kuchli tomonlar (S) | Geografik joylashuv, yirik xomashyo bazasi, iqtisodiy barqarorlik     |
| 2 | Zaif tomonlar (W)   | Byurokratiya, malakali kadrlar yetishmasligi, infratuzilma muammolari |
| 3 | Imkoniyatlar (O)    | EIZlar, DXSh loyihalari, Yevroosiyo va Osiyo bozorlariga yaqinlik     |
| 4 | Tahdidlar (T)       | Geosiyosiy beqarorlik, investorlar ishonchining pasayishi             |

Ushbu SWOT-tahlil jadvali mamlakatimizning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi iqtisodiy siyosatini strategik nuqtai nazardan baholashga xizmat qiladi. Jadvalda mavjud siyosiy va iqtisodiy modelning kuchli tomonlari (S), zaif jihatlari (W), mavjud imkoniyatlar (O) hamda potensial tahdidlar (T) tizimli tarzda ko'rib chiqilgan.

Bu yondashuv orqali hukumatning hozirgi siyosiy vositalari qanday ijobiy samara bermoqda, qanday sohalarida islohotlar zarur, shuningdek, kelgusida qanday imkoniyatlardan foydalanish mumkin va qanday xavf-xatarlarni inobatga olish zarurligi aniqlanadi. SWOT-tahlil strategik qaror qabul qilishda hamda investitsion muhitni takomillashtirishda muhim analitik vosita hisoblanadi.

Shuningdek, 2023-yilda davlat aktivlarini xususiylashtirish dasturi doirasida bir qator yirik korxonalar xususiy sektorga o'tkazildi. Masalan, OTP Bank (Vengriya) tomonidan Ipoteka Bankning 73,7% ulushi sotib olindi.

4. Xorijiy investorlar va ularning hissasi. 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga eng katta investitsiyalarni quyidagi davlatlar kiritdi:

Xitoy: 25,6% ulush bilan eng yirik investor bo'ldi.

Rossiya: 13,4% ulush bilan ikkinchi o'rinda turadi.

Saudiya Arabistoni: 7,9% ulush bilan uchinchi o'rinda.

Turkiya: 6,4% ulush bilan to'rtinchi o'rinda.

Birlashgan Arab Amirliklari: 5,8% ulush bilan beshinchi o'rinda.

Germaniya: 4,3% ulush bilan oltinchi o'rinda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatdi. Mamlakatimizda 2020-2025-yillar davomida olib borilgan iqtisodiy islohotlar, institutsional o'zgarishlar va investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida xorijiy investitsiyalar oqimi izchil o'sdi. Jumladan, 2024-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 11,9 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 53,6% ga oshgan [13]. Ushbu o'sish iqtisodiy siyosatda qo'llanilgan zamonaviy yondashuvlar - fiskal preferensiyalar, huquqiy barqarorlik, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, investitsiyaviy siyosatni muvaffaqiyatli yuritish uchun iqtisodiy siyosat faqat yengillik va preferensiyalar bilan cheklanmasligi kerak, balki muammolarni tizimli hal etishga, ishonchli huquqiy muhit yaratishga va sarmoyadorlar bilan ochiq muloqotga asoslangan bo'lishi lozim.

Yakunda aytish mumkinki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosat nafaqat makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim strategik vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois, zamonaviy yondashuvlarga asoslangan, barqaror va ochiq iqtisodiy siyosatni davom ettirish mamlakatimizning global investitsiya maydonida o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Ўзбекистон Республикаси "Инвестициялар ва инвестициявий фаолият тўғрисида"ги Қонуни. — Тошкент: Адлия вазирлиги нашри, 2020.
- Ҳожиёв С.С. Хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг иқтисодий механизмлари. — Тошкент: Иқтисодийот, 2022. — 235 б.





3. Каримов Қ.Х. Хорижий инвестициялар ва уларни миллий иқтисодиётга жалб этиш стратегияси. // Иқтисодий таҳлил журнали. – 2023. – №2. – Б. 45–58.
4. Турсунов Б.О. Ўзбекистонда инвестицион муҳитни яхшилаш: муаммолар ва ечимлар. // Бозор, пул ва кредит. – 2021. – №4. – Б. 17–29.
5. Dunning, J.H. (1993). Multinational Enterprises and the Global Economy. Addison-Wesley, London.
6. Alfaro, L. (2003). Foreign Direct Investment and Growth: Does the Sector Matter? Harvard Business School Working Paper, No. 03-073.
7. Sachs, J.D. (2005). The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time. Penguin Press.
8. OECD (2023). Foreign Direct Investment Statistics Database. Available at: <https://www.oecd.org/investment/statistics.htm>
9. UNCTAD (2024). World Investment Report 2024: Investing in Sustainable Development. United Nations Conference on Trade and Development. – Geneva: UN.
10. The World Bank (2023). Doing Business Indicators. Available at: <https://www.doingbusiness.org>
11. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Rasmiy hisobotlar (2020–2024 yillar). – [www.mift.uz](http://www.mift.uz)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>